



PRINCIPLES OF TEACHING SUBJECTS IN PRIMARY GRADES THROUGH ENGLISH LANGUAGE BASED ON CONTENT AND LANGUAGE INTEGRATION

Doniyeva Dildora Shodi qizi

Master's student, Department of Education and Training Theory and Methodology (primary education), Nizami Uzbek State University of Education

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19691214>

ARTICLE INFO

Received: 15th April 2026

Accepted: 21st April 2026

Online: 22nd April 2026

KEYWORDS

CLIL, integrated learning, English language, content and language integration, communicative competence, multilingualism, teaching methodology, primary education, cognitive development, language policy.

ABSTRACT

This article examines the theoretical foundations, pedagogical significance, and practical application of the CLIL (Content and Language Integrated Learning) approach in teaching academic subjects through English. It highlights the role of this approach in developing students' language competence as well as their cognitive, communicative, and intercultural skills. Furthermore, the study analyzes international trends in the implementation of CLIL in Europe, Asia, and Latin America. The findings indicate that this approach serves as an innovative model of modern education, contributing to the formation of competitive, multilingual, and globally-minded individuals.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI VOSITASIDA O'QUV FANLARINI MAZMUN VA TIL INTEGRATSIYASI ASOSIDA O'QITISH TAMOYILLARI

Doniyeva Dildora Shodi qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Magistratura bo'limi Ta'lim va tarbiya anzarivasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi magistratura talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19691214>

ARTICLE INFO

Received: 15th April 2026

Accepted: 21st April 2026

Online: 22nd April 2026

KEYWORDS

CLIL, integratsiyalashgan ta'lim, ingliz tili, mazmun va til integratsiyasi, kommunikativ kompetensiya, ko'p tillilik, ta'lim metodikasi, boshlang'ich ta'lim,

ABSTRACT

Mazkur maqolada ingliz tili vositasida o'quv fanlarini mazmun va til integratsiyasi asosida o'qitish (CLIL) yondashuvining nazariy asoslari, pedagogik ahamiyati va amaliy qo'llanilishi tahlil qilinadi. CLIL metodining ta'lim tizimidagi o'rni, uning o'quvchilarning til kompetensiyasi bilan bir qatorda kognitiv, kommunikativ va madaniyatlararo ko'nikmalarini rivojlantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, maqolada CLILning xalqaro tajribasi, xususan, Yevropa, Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi rivojlanish tendensiyalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mazkur yondashuv zamonaviy ta'limning innovatsion modeli sifatida global



kognitiv rivojlanish, til raqobatbardosh, ko'p tilli va keng dunyoqarashga ega siyosati. shaxslarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich maktab ta'limi yosh avlod ta'limining boshlanish nuqtasi, ularning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqichdir. Zamonaviy jamiyat talablarining o'zgarishi, mamlakat ravnaqi, milliy ehtiyojlarning yangilanishi natijasida bugungi kunda yosh avlod psixologiyasi ham sezilarli o'zgarishlarga uchramoqda. Shu boisdan, ularning dunyoqarashi, tafakkuri va xulq-atvori hayot talablariga mos tarzda shakllantirilishi ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

CLIL — bu ta'limda til va mazmuni birlashtiruvchi “ikki yo'nalishga asoslangan” yondashuv sifatida keng e'tirof etilgan metoddir. Mehisto, Marsh va Frigols (2008) ta'kidlaganidek, CLIL yondashuvi o'quv jarayonida til o'rganish va fan mazmunini o'zlashtirishga teng e'tibor qaratishni ko'zda tutadi.¹ Ya'ni, bu yondashuvda o'quv predmetlari (masalan, matematika, biologiya yoki tarix) o'qitilayotganda, o'qitish tili sifatida o'quvchining ona tili emas, balki chet tili odatda ingliz tili qo'llaniladi.

CLIL modeli asosan boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim tizimlarida qo'llaniladi va u o'quvchilarning chet tilini tabiiy o'quv muhitida, ya'ni real fan mazmuni orqali o'rganishlariga imkon yaratadi. Bunday o'qitish shakli o'quvchilarga tilni alohida grammatik mashqlar orqali

emas, balki mazmunli o'quv faoliyati orqali o'zlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ularning tahlil qilish, fikrlash, bahslashish, o'z fikrini chet tilida ifodalash kabi yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Amalda CLIL atamasidagi birinchi “L” (Language) har qanday tilni anglatishi kerak bo'lsa-da, amaliyotda bu, asosan, ingliz tilini bildiradi. Chunki ingliz tili hozirgi kunda xalqaro aloqa, fan va texnologiya tili sifatida yetakchilik qilmoqda. Shuning uchun ingliz tili asosida olib boriladigan CLIL loyihalari ko'plab mamlakatlarda keng tarqalgan.² Shu sababli, aksariyat hollarda CLIL atamasi amalda CEIL ya'ni mazmun va ingliz tilining integratsiyalashgan o'qitilishi ma'nosida qo'llaniladi.

CLIL yondashuvi nafaqat til o'rgatishni, balki fikrlash madaniyatini rivojlantirishni, fanlararo muloqotni shakllantirishni va ta'limda kommunikativ kompetensiyani kuchaytirishni ham maqsad qiladi. Bu metodning pedagogik asosida o'quvchini faol subyekt sifatida ko'rish, ya'ni u bilimni tayyor holatda qabul qilmaydi, balki uni tilda ifodalash, savollar berish, muhokama qilish orqali o'zlashtiradi. Masalan, CLIL darsida matematika o'qituvchisi “fractions” yoki “geometry” mavzularini o'rgatarkan, o'quvchilar

¹ Mehisto, P., Marsh, D., Frigols, M. J. *Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education*. – Oxford: Macmillan Education, 2008. – B. 238.

² Abdullayeva, B. S., Tursunova, M. B., Xaydarova, M. H. *Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani: Darslik*. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDFPU nashri, 2022. – B. 200.



nafaqat matematik tushunchalarni o'zlashtiradilar, balki shu jarayonda tilni amalda qo'llash terminlardan foydalanish, izoh berish, natijani tushuntirish orqali til ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar. Shu tarzda til va mazmun bir-birini boyituvchi ikki yo'nalishga aylanadi.

CLIL yondashuvi tilni maqsad emas, balki ta'lim vositasi sifatida ko'radi. U o'quvchilarda chet tili va fan mazmunini o'zaro uyg'un tarzda o'zlashtirishga yordam beradi. Natijada, bunday o'qitish modeli o'quvchilarni global fikrlovchi, ko'p tilli va madaniyatlararo muloqotga tayyor, zamonaviy bilimli shaxslar sifatida shakllantiradi.

CLILni chet tilida ta'lim berishning boyitilgan (enrichment) shakli deb qarash mumkin. U o'quvchilarga nafaqat fan bilimini, balki tilni tabiiy ta'lim muhitida egallash imkonini beradi. Bunday yondashuv natijasida o'quvchi bir vaqtning o'zida til o'rganuvchi ham, fan o'rganayotgan tadqiqotchi ham bo'ladi. U fikrini ifoda etish, tushunish va tahlil qilish jarayonida yangi tilni faol qo'llaydi. CLIL shunday qilib o'quvchining til kompetensiyasini, mantiqiy fikrlashini va madaniyatlararo tafakkurini birgalikda rivojlantiruvchi innovatsion ta'lim modeli sifatida qadrlanadi.

CLIL butun dunyoda shu darajada tez tarqaldiki, hatto uning eng faol tarafdorlari ham bu jarayonni "kutilmagan darajada tez sur'atda kengaygan" deb ta'riflaganlar. Bu holat tabiiy ravishda CLILning ommalashuvi ortidagi til siyosati va ijtimoiy omillarni

chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirdi.

So'nggi yillarda til siyosatini o'rganishda yangi yondashuv shakllandi: endilikda u faqat markaziy boshqaruv yoki hukumat qarorlari doirasida emas, balki til amaliyotlari va tilga bo'lgan ijtimoiy e'tiqodlar kontekstida ham o'rganilmoqda. Bu esa CLIL fenomenini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki CLILning joriy etilishi aksariyat mamlakatlarda yuqoridan pastga (high-level policymaking) hamda pastdan yuqoriga tamoyillari orqali sodir bo'lgan: bir tomondan davlat siyosati va ta'lim strategiyalari, ikkinchi tomondan esa o'qituvchilar va ota-onalarning tashabbuslari bir-birini to'ldirib borgan.

Shu bilan bir qatorda, o'qituvchilar ham CLILni amaliyotga joriy etishda faol tashabbus ko'rsatmoqdalar. Ular o'z darslarini ingliz tili yoki boshqa chet tillari orqali olib borish tajribasini kengaytirmoqda. Bunday o'qituvchilar, odatda, chet tili mutaxassislari emas, balki o'z fanining yetuk vakillari bo'lib, o'quv jarayonini interfaol, tildan faol foydalaniladigan tarzda tashkil etishga intiladilar.³ Shu sababli CLIL harakati ko'p hollarda quyi darajadagi tashabbuslardan boshlangan bo'lib, keyinchalik davlat miqyosida qo'llab-quvvatlangan.

Boshqa tomondan esa, yuqori darajadagi siyosiy institutlar — ba'zilar hatto xalqaro yoki supranatsional tashkilotlar (masalan, Yevropa Ittifoqi) CLILning ijtimoiy va iqtisodiy afzalliklarini tan olib, uni til siyosatining muhim yo'nalishi sifatida ko'rmoqda. Bu

³ Dalton-Puffer, C. *Content-and-Language Integrated Learning: From Practice to Principles?* –

Annual Review of Applied Linguistics, Vol. 31, 2011. – B. 24



tashkilotlar til siyosatini nafaqat madaniy boylik sifatida, balki iqtisodiy raqobat va global integratsiyaning asosi sifatida ham rivojlantirishga qaratgan.

Yevropa bu borada o'ziga xos "namunaviy maydon" hisoblanadi. Ko'plab mamlakatlarda CLIL milliy ta'lim siyosatining ajralmas qismiga aylangan: maktablarda fanlar ingliz, fransuz, nemis yoki ispan tillarida o'qitilmoqda, bu esa o'quvchilarda chet tilini tabiiy muhitda egallash imkonini yaratmoqda. Shu bilan birga, CLILning o'xshash jarayonlari Lotin Amerikasi, Xitoy, Janubi-Sharqiy Osiyo va boshqa hududlarda ham kuzatilmoqda. Masalan, Lotin Amerikadagi CLIL dasturlari o'quvchilarning ingliz tili orqali global fan va texnologiyaga kirish imkonini oshirishni maqsad qiladi, Xitoyda esa CLIL yondashuvi davlatning "bilim iqtisodiyoti"ga o'tish strategiyasi bilan chambarchas bog'langan. Bunday dasturlarda ingliz tili nafaqat aloqa vositasi, balki zamonaviy innovatsiyalarni o'zlashtirish kaliti sifatida qaraladi.

CLILning jadal tarqalishi tasodifiy hodisa emas, balki global til siyosatining, iqtisodiy ehtiyojlarning va jamiyatning o'zgaruvchan qadriyatlarining mahsulidir. CLIL bugungi kunda nafaqat o'qitish metodi, balki xalqaro raqobatga tayyor, ko'p tilli va madaniyatlararo fikrlaydigan avlodni shakllantirishga xizmat qiluvchi ta'lim falsafasiga aylangan.

Yevropa miqyosida olib borilayotgan til siyosatida chet tili orqali fanlarni o'qitish g'oyasi (integratsiyalashgan ta'lim modeli) so'nggi yillarda alohida

e'tibor markaziga aylandi. Bu yondashuv Yevropa Komissiyasining 1995, 2003 va 2008-yillardagi bir qator rasmiy hujjatlarida til o'rganishni rag'batlantirishning eng samarali yo'nalishlaridan biri sifatida ta'kidlab o'tilgan. Hatto 2003-yilgi Yevropa Komissiyasi hisobotida bu yondashuv "Yevropa Ittifoqining til o'rganish maqsadlariga sezilarli hissa qo'shuvchi ta'lim modeli" sifatida e'tirof etilgan.⁴

Bu tashabbusning asosiy maqsadi — ko'p tilli fuqarolarni shakllantirishdir. Bu bejiz emas, chunki Yevropa Ittifoqida bugungi kunda 23 ta rasmiy til mavjud bo'lib, aholining katta qismi hali ham asosan bir tilli muhitda yashaydi. Shu sababli, Ittifoq til siyosatining eng muhim tamoyillaridan biri aholining chet tillarini o'rganish motivatsiyasini kuchaytirish, ularni madaniyatlararo muloqotga tayyor, til jihatdan faol shaxslar sifatida tarbiyalashdan iborat.

Yevropa Komissiyasining ta'kidlashicha, har bir fuqaro kamida ikki yoki undan ortiq tilni bilishi nafaqat shaxsiy madaniyat darajasining ko'rsatkichi, balki iqtisodiy raqobatbardoshlikning ham muhim omilidir. Chunki ko'p tillilik mehnat bozorida erkin harakatlanish, boshqa mamlakatlarda o'qish, ishlash yoki tadqiqot olib borish imkonini kengaytiradi. 2008-yilda nashr etilgan "A Guide to Languages in the European Union" nomli hujjatda bu fikr yanada aniq ifoda etilgan:

"Yevropa Ittifoqi fuqarolarini boshqa tillarni o'rganishga undash yagona bozor doirasida kasbiy va shaxsiy harakatchanlikni kuchaytirish,

⁴ "Boshlang'ich ta'limda yangi metodikalar": Ilmiy-uslubiy to'plam. – Andijon: 2023. – B. 110.



madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlash va o'zaro tushunishni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Bir nechta tillarda muloqot qila olish qobiliyati har bir yevropalik uchun zarur hayotiy ko'nikmadir. Boshqa tillarni o'rganish nafaqat kognitiv qobiliyatni rivojlantiradi, balki ona tilidagi savodxonlikni ham mustahkamlaydi. Shu orqali inson boshqa davlatda o'qish yoki ishlash imkoniyatidan to'liq foydalana oladi.”⁵

Yevropa Ittifoqining til siyosati faqat til o'rganishga oid siyosiy hujjatlar yig'indisi emas, balki ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy strategiyaning ajralmas qismidir. Bu yondashuvda chet tili faqat aloqa vositasi emas, balki insonni xalqaro jamiyatga olib kiruvchi intellektual va kasbiy ko'prik sifatida talqin etiladi. Natijada, Yevropa maktablari va universitetlarida chet tili orqali fanlarni o'qitish amaliyoti tobora kengayib bormoqda. O'quvchilar yangi bilimlarni o'zlashtirish bilan birga, til kompetensiyasini tabiiy muhitda rivojlantiradi. Shu tarzda, til o'rganish jarayoni endi alohida maqsad emas, balki ta'limning ajralmas qismi, ya'ni insonni global dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlovchi asosiy omil sifatida qaralmoqda.

Chet tili vositasida fanlarni o'qitish modeli ko'p hollarda tilni boyituvchi va rivojlantiruvchi ta'lim yondashuvi sifatida e'tirof etilsa-da, amaliyotda bu tizim uchun aniq o'quv maqsadlari va kutilgan natijalar hali to'liq belgilab berilmagan. Garchi xalqaro ekspertlar guruhi bu yo'nalishdagi umumiy

g'oyalarni konseptual asoslar, o'quv dasturlari va namunaviy materiallar shaklida ishlab chiqqan bo'lsa-da, Yevropaning 27 ta ta'lim tizimidan faqat bir nechtasi bu tashabbusni amalda qo'llab-quvvatlashga jiddiy sarmoya kiritgan.

Aksariyat mamlakatlarda bu yondashuvni rivojlantirish tashabbusi, asosan, quyi darajadagi manfaatdor tomonlar o'qituvchilar, ota-onalar va maktablar tomonidan amalga oshirilmoqda. Shu bois, yirik davlat investitsiyasi, keng ko'lamlil o'qituvchi tayyorlash tizimi yoki ilmiy tadqiqotlarga mablag' yo'naltirish yetarli emas. Shunga qaramay, ayrim davlatlar bu borada ijobiy tajriba to'plagan. Masalan, Ispaniya va Niderlandiya bu jarayonda yetakchi o'rin tutadi. Ispaniyada so'nggi yillarda ko'plab tadqiqot va rivojlanish loyihalari amalga oshirilmoqda. Ushbu tajribalar chet tilini ta'lim jarayoniga tabiiy integratsiya qilish, o'qituvchilarni tayyorlash va fan darslarini til vositasi orqali o'qitishning metodik asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Niderlandiyada esa bu jarayon yanada tizimli yo'lga qo'yilgan mamlakatda maxsus akkreditatsiya tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, u xorijiy til orqali ta'lim beruvchi maktablarga sifat mezonlari asosida rasmiy maqom beradi. Shu bilan birga, o'qituvchilar va maktablar uchun doimiy malaka oshirish dasturlari tashkil etilgan. Osiyo mintaqasidagi holat esa biroz boshqacharoq. Bu hududda ko'p mamlakatlar an'anaviy jihatdan bir tilda so'zlashuvchi jamiyatlar bo'lishiga

⁵ Lasagabaster, D., Sierra, J. M. (Eds.) *Language Learning through CLIL*. – Bilbao: Servicio Editorial Universidad del País Vasco, 2009. – B. 150.



qaramay, shu bilan bir vaqtda “til xilma-xilligi nihoyatda boy” davlatlar ham mavjud. Eng diqqatga sazovor jihat shundaki, Osiyo mamlakatlarida ingliz tilining o‘ziga xos mavqeini rad etishga siyosiy bosim deyarli yo‘q. Aksincha, ingliz tili 21-asr til siyosatining ajralmas qismi sifatida e’tirof etilgan.⁶

Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi rasmiy ish yuritish tili sifatida ingliz tilini tan olgan. Bu qaror deyarli hech qanday siyosiy bahs-munozarasiz qabul qilingan bu esa, masalan, Yevropa Ittifoqi kontekstida tasavvur qilish qiyin bo‘lgan holatdir. Shu orqali ASEAN mintaqasida ingliz tili nafaqat aloqa vositasi, balki ta’lim, iqtisod va diplomatiya tili sifatida mustahkam o‘rnashganini ko‘rish mumkin.

Lotin Amerikasi mamlakatlarida esa til va ta’lim siyosati o‘ziga xos yo‘nalishda rivojlanmoqda. Bu hududda ham chet tili orqali o‘qitish amaliyoti endigina keng ommaga tanila boshlagan bo‘lib, dastlabki ilmiy hisobotlar va tajriba almashish ishlari yaqinda paydo bo‘ldi. Mazkur mintaqada bu yondashuv, avvalo, iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish hamda o‘quvchilarda global tafakkurni shakllantirishga qaratilgan.

Chet tili asosidagi ta’lim modeli dunyoning turli mintaqalarida turlicha darajada rivojlanayotgan bo‘lsa-da, ularning barchasini birlashtiruvchi

umumiy maqsad yosh avlodni global kommunikatsiya, ilmiy taraqqiyot va xalqaro mehnat bozori talablariga mos tayyorlashdir. Shu ma’noda, bu yondashuv bugungi zamonaviy ta’limning asosiy strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili vositasida o‘quv fanlarini mazmun va til integratsiyasi asosida o‘qitish (CLIL) zamonaviy ta’lim tizimining eng dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu yondashuv o‘quvchilarga nafaqat fan bilimlarini egallash, balki chet tilini tabiiy muhitda o‘rganish imkonini beradi. Natijada o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va o‘z fikrini erkin ifodalash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Shuningdek, CLIL modeli ta’lim jarayonini yanada interfaol, mazmunli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, mazkur yondashuvni muvaffaqiyatli joriy etish o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi, davlat siyosati va ta’lim tizimidagi islohotlar bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois, O‘zbekiston ta’lim tizimida ham CLIL yondashuvini bosqichma-bosqich joriy etish, o‘qituvchilar malakasini oshirish va metodik ta’minotni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa kelajakda raqobatbardosh, ko‘p tilli va global tafakkurga ega avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

References:

⁶ Brinton, D. M., Snow, M. A., Wesche, M. *Content-Based Second Language Instruction*. – Chicago: University of Illinois Press, 2008. – B. 210.



1. Mehisto, P., Marsh, D., Frigols, M. J. *Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education*. – Oxford: Macmillan Education, 2008. – B. 238.
2. Abdullayeva, B. S., Tursunova, M. B., Xaydarova, M. H. *Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani: Darslik*. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashri, 2022. – B. 200.
3. Dalton-Puffer, C. *Content-and-Language Integrated Learning: From Practice to Principles?* – Annual Review of Applied Linguistics, Vol. 31, 2011. – B. 24
4. “Boshlang'ich ta'limda yangi metodikalar”: Ilmiy-uslubiy to'plam. – Andijon: 2023. – B. 110.
5. Lasagabaster, D., Sierra, J. M. (Eds.) *Language Learning through CLIL*. – Bilbao: Servicio Editorial Universidad del País Vasco, 2009. – B. 150.
6. Brinton, D. M., Snow, M. A., Wesche, M. *Content-Based Second Language Instruction*. – Chicago: University of Illinois Press, 2008. – B. 210.